



**KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA EMOTSIONAL INTELLEKTNI
RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI**

Hakimova Sarvinoz Sharifjon qizi

Namangan davlat Pedagogika instituti magistranti

Email: hakimovasarvinoz140@gmail.com

ORCID ID: 0009-0004-3895-9660

Annotatsiya. *Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirishning nazariy va amaliy jihatlari empirik tahlil qilinadi. Emotsional intellektning tarkibiy komponentlari, uning shaxs rivoji va o‘quv faoliyatiga ta‘sirini zamonaviy psixologik yondashuvlar asosida yoritilgan. Tadqiqotda pedagogik va psixologik mexanizmlar integratsiyasi asosida samarali rivojlantirish usullari ishlab chiqilgan.*

Kirish. Globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida ta‘lim tizimiga qo‘yilayotgan talablar tubdan o‘zgarib bormoqda. Endilikda faqat akademik bilimlar emas, balki o‘quvchilarning emotsional barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va kommunikativ kompetensiyalari ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtai nazardan, emotsional intellektni rivojlantirish boshlang‘ich ta‘limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida qaralmoqda.

Psixologik tadqiqotlarda emotsional intellekt tushunchasi birinchi bor Peter Salovey va John D. Mayer tomonidan ilmiy asoslangan bo‘lib, keyinchalik Daniel Goleman tomonidan keng ommalashtirilgan. Ushbu nazariyalar shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekt shaxsning muvaffaqiyatli hayot kechirishi va samarali faoliyat yuritishida muhim omil hisoblanadi. Haqiqatdan ham bu yoshdagi bolalar insonlarga nisbatan empatik munosabatda bo‘ladilar. Bolaning kelajakda o‘z oilasi, do‘stlari va jamiyat uchun ham bolaga kichik maktab yoshidan emotsional intellekt juda muhimdir. Chunki bola o‘z tuyg‘ularini anglashi va boshqalarga mehribonlik va g‘amxo‘rlik qilishi uchun poydevor vazifasini bajaradi. Qachonki bolaning o‘zi nimani xoxlayotganini anglasagina, o‘z maqsadi sari olg‘a qadam bosa oladigan inson bo‘lib voyaga yetadi.

Kichik maktab davri 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha davom etadi. Bu davrda bola, fan asoslarini o‘rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo‘ladi. Uning psixikasi bilim olishga yetadigan darajada rivojlanadi. Shu yoshdagi bola idrokining o‘tkirliги, ravshanligi, sofligi, aniqligi, xayolining yorqinligi, xotirasining kuchliligi, tafakkurining yaqqolliги o‘zining qiziquvchanligi, ishonuvchanligi bilan boshqa yoshdagi bolalardan tubdan ajralib turadi. Maktab ta‘limiga tayyorlanayotgan bolada diqqat nisbatan uzoq muddatli va shartli barqaror bo‘ladi. Kichik maktab yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o‘qish hisoblanadi [1; 47b]

Maktabga kelish arafasida bolaning so‘z boyligi o‘z fikrini bayon eta oladigan darajada ortadi. 6 yoshdagi normal rivojlanayotgan bola o‘z nutqida 3000-7000





TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



so'zni ishlatadi. Boshlang'ich sinf yoshidagi bolalar nutqi asosan ot, fe'l, sifat, son va bog'lovchilardan iborat bo'ladi. Bu yoshdagi bolalar o'z nutqlarida qaysi so'zlarni ishlatgani Afzal-u, qaysilarini ishlatish mumkin emasligini farqlay oladilar. 6-7 yoshli bola o'z jumllarini murakkab grammatik tizimda tuza oladi. Bolalarda ixtiyoriy diqqat tez o'sa boshlaydi [2;274b]. Bola butun bolalik davrida nutqni jadal ravishda egallab borib, nutqni o'zlashtirishi ma'lum bir faoliyatga aylana boradi. 7-9 yoshli bolalarning o'ziga xos yana bir xususiyati shundaki ular o'z fikrlarini bayon etish uchun emas, balki o'z suxbatdoshining diqqatini o'ziga jalb qilish uchun xam gapiradilar.

O'qish faoliyati kichik maktab yoshidagi o'quvchining aql-idroki, sezgirligi, kuzatuvchanligi, eslab qolish va esga tushirish imkoniyatlarining rivojlanishi uchun muhim shart-sharoitlar yaratadi, hisoblash malakalarini shakllantiradi. Ta'lim jarayonida ularning bilimlar ko'lamini kengayadi, qiziqishlari ortadi, ijodiy izlanish qobiliyati rivojlanadi, ularda tafakkurning faolligi, mustaqilligi ortadi, aqliy imkoniyatini ishga solish vujudga keladi. Mazkur yoshdagi bolalar o'z idroklarining aniqligi, ravonligi, o'tkirligi bilan boshqa yosh davrdagi insonlardan keskin farq qiladi. Ular har bir narsaga berilib, o'ta sinchkovlik bilan qarashlari sababli idrokning muhim xususiyatlarini o'zlashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar [1;49b].

Empatiya — bu shaxsning boshqa insonlarning hissiy holatini anglash, ularning ichki kechinmalarini tushunish va o'zini ularning o'rniga qo'yib ko'ra olish qobiliyatidir. Empatiya (yunon. *empathia* - birgalikda dardlashmoq) - boshqa odamlarning psixik holatlarini tushunish va ularga hamdardlik qilish qobiliyati hisoblanadi [3;90b]. Ushbu psixologik hodisa insonlar o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi bo'lib, muloqot samaradorligini oshirishda, o'zaro tushunishni shakllantirishda va ijobiy psixologik muhit yaratishda katta ahamiyatga ega.

Zamonaviy psixologiyada empatiya ikki asosiy komponentga ajratiladi:

kognitiv va affektiv empatiya:

Kognitiv empatiya - bu boshqa insonning fikr va holatini ongli ravishda tushunish bo'lsa, affektiv empatiya - uning his-tuyg'ularini ichki kechinma sifatida his qilishni anglatadi. Shu bilan birga, ayrim tadqiqotchilar empatiyaning yana bir turi sifatida rahm-shafqatli empatiyani ajratib ko'rsatadilar, bunda inson nafaqat boshqani tushunadi, balki unga yordam berishga intiladi.

Empatiya shaxs rivojida, ayniqsa bolalik va o'smirlik davrida muhim ahamiyat kasb etadi. U ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantiradi, konfliktlarni bartaraf etishda yordam beradi hamda axloqiy qadriyatlarining rivojlanishiga xizmat qiladi. Empatiya darajasi yuqori bo'lgan shaxslar odatda boshqalarga nisbatan bag'rikeng, hamdard va ijtimoiy jihatdan faol bo'ladilar. Ta'lim jarayonida empatiyani rivojlantirish o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi, sinfda ijobiy psixologik muhitni ta'minlaydi. O'qituvchining empatik yondashuvi o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olish, ularning ehtiyoj va qiyinchiliklarini tushunish imkonini beradi. Bu esa ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



Adabiyotlar tahlili. Lev Vygotskiy nazariyasiga ko'ra, bola psixik rivojlanishi bevosita ijtimoiy muhit va muloqot jarayoni bilan chambarchas bog'liqdir. Unga ko'ra, har qanday oliy psixik funktsiya dastlab ijtimoiy darajada, ya'ni kattalar va tengdoshlar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida shakllanadi, keyinchalik esa ichki, individual psixik jarayonga aylanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, emotsional intellekt ham biologik emas, balki ijtimoiy tajriba asosida rivojlanadigan murakkab psixologik tizim sifatida namoyon bo'ladi. Bu boradagi fikrlar o'z hayotiyligi bilan ajralib turadi. Haqiqatdan ham bola oiladan chiqgach o'z fikri, qiziqishlari va ehtiyojlarini tubdan ajrata boshlaydi. U do'stlarini qiziqishlarini o'ziniki bilan solishtiradi. Uning "Men" i shakllana boshlaydi.

Bola kattalar bilan muloqot qilish, ularning emotsional reaksiyalarini kuzatish, ijtimoiy vaziyatlarda o'zini tutish qoidalarini o'zlashtirish orqali o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarishni o'rganadi. Ayniqsa, o'qituvchi va ota-onalarning emotsional jihatdan qo'llab-quvvatlovchi munosabati bolada empatiya, o'zini nazorat qilish va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarining shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Demak, Vygotskiy ta'limotidan kelib chiqib aytish mumkinki, emotsional intellektni rivojlantirishda ijtimoiy muhitni to'g'ri tashkil etish, samarali muloqot va hamkorlikka asoslangan pedagogik yondashuvlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Daniel Goleman emotsional intellekt tushunchasini keng ommaga tanitgan olimlardan biri bo'lib, uni shaxs muvaffaqiyatining muhim omili sifatida talqin qiladi. Uning ta'kidlashicha, inson hayotidagi muvaffaqiyat faqat intellektual salohiyat (IQ) bilan emas, balki emotsional intellekt darajasi bilan ham bevosita bog'liqdir. Goleman nazariyasiga ko'ra, emotsional intellekt beshta asosiy komponentdan iborat: o'zini anglash (self-awareness), o'zini boshqarish (self-regulation), ichki motivatsiya, empatiya va ijtimoiy ko'nikmalar. Ushbu komponentlar shaxsning o'z his-tuyg'ularini anglash, ularni nazorat qilish hamda boshqalar bilan samarali muloqot o'rnatishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayniqsa, kichik maktab yoshidagi bolalarda ushbu ko'nikmalarni shakllantirish ularning o'quv faoliyatiga moslashuvi, sinf jamoasida o'z o'rnini topishi va ijtimoiy munosabatlarni samarali yo'lga qo'yishida muhim rol o'ynaydi. Golemanning ilmiy qarashlari shuni ko'rsatadiki, emotsional jihatdan rivojlangan shaxslar stressli vaziyatlarga bardoshli bo'lib, muammolarni konstruktiv hal qilishga moyil bo'ladi. Shu bois, ta'lim jarayonida emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan pedagogik yondashuvlar o'quvchilarning nafaqat akademik muvaffaqiyatini, balki ularning shaxs sifatida kamol topishini ham ta'minlaydi.

Jean Piaget ta'limotiga ko'ra, kichik maktab yoshidagi bolalar kognitiv rivojlanishning muhim bosqichi — konkret operatsiyalar davrida bo'lib, bu davrda ularning mantiqiy tafakkuri sezilarli darajada shakllanadi. Aynan shu jarayonda bolalar atrof-muhit hodisalarini sabab-oqibat bog'lanishlari asosida tushuna boshlaydi, real vaziyatlarga tayangan holda fikrlash qobiliyatini rivojlantiradi.

Shu bilan birga, Piaget qarashlarida emotsional rivojlanish ham kognitiv taraqqiyot bilan uzviy bog'liq holda kechishi ta'kidlanadi. Ya'ni, bola o'z tajribasi asosida nafaqat mantiqiy xulosalar chiqaradi, balki turli vaziyatlarda yuzaga keladigan his-tuyg'ularni anglash, ularni





TANQIDIY NAZAR, TAHLILY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



farqlash va boshqarish ko'nikmalarini ham bosqichma-bosqich egallaydi. Kichik maktab yoshida bolalarda ijtimoiy qoidalarni tushunish, boshqalarning nuqtai nazarini hisobga olish va emotsional reaksiyalarni nazorat qilish qobiliyatlari rivojlanib boradi. Bu esa emotsional intellektning muhim tarkibiy qismlari — empatiya, o'zini boshqarish va ijtimoiy moslashuvning shakllanishiga asos yaratadi.

Demak, Piaget nazariyasiga tayangan holda aytish mumkinki, kichik maktab yoshidagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish jarayoni ularning kognitiv rivojlanishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ta'lim jarayonida mantiqiy va emotsional rivojlanishni uyg'un holda qo'llab-quvvatlash muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

“Inson muvaffaqiyatining katta qismi uning emotsional intellektiga bog'liq” degan g'oya Daniel Goleman tomonidan ilgari surilgan bo'lib, u emotsional omillarning shaxs hayotidagi o'rnini alohida ta'kidlaydi. Ushbu yondashuvga ko'ra, insonning o'z his-tuyg'ularini anglash va boshqarish qobiliyati, shuningdek, boshqalar bilan samarali muloqot o'rnatish ko'nikmalari uning ijtimoiy va kasbiy muvaffaqiyatini belgilovchi muhim omillardan hisoblanadi.

Shu bilan birga, Howard Gardner emotsional intellekt tushunchasini to'g'ridan-to'g'ri qo'llamagan bo'lsa-da, uning ko'p qirrali intellekt nazariyasi doirasida emotsional intellektga yaqin bo'lgan ikki muhim tur — intrapersonal va interpersonal intellektni ajratib ko'rsatadi. Intrapersonal intellekt shaxsning o'z ichki kechinmalari, his-tuyg'ulari va imkoniyatlarini anglash qobiliyatini ifodalasa, interpersonal intellekt esa boshqalarning emotsional holatini tushunish va ular bilan samarali munosabat o'rnatish ko'nikmalarini o'z ichiga oladi.

Mazkur yondashuvlar emotsional intellektning nazariy asoslarini boyitib, uning shaxs rivojidagi o'rnini kengroq talqin qilish imkonini beradi. Xususan, kichik maktab yoshidagi bolalarda ushbu intellekt turlarini rivojlantirish ularning o'zini anglash, empatiya va ijtimoiy moslashuv ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Natijalar tahlili. Tadqiqotimiz davomida maktab o'quvchilari orasidan kichik maktab yoshidagi 132 nafar o'quvchini qamrab olindi. Tadqiqot davomida psixologik kuzatuvlar, so'rovnomalar va Kern-Yerasik testidan foydalanildi va tahlil natijalari solishtirildi. Ularning emotsional holati va ijtimoiy xulq-atvori o'rganildi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda emotsional intellekt darajasi ularning ijtimoiy xulq-atvori va o'quv faoliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Xususan, emotsional intellekti yuqori bo'lgan o'quvchilar o'z his-tuyg'ularini erkin ifodalay olishi, tengdoshlari bilan samarali muloqot o'rnatishi hamda muammoli vaziyatlarda konstruktiv yechim topa olishi bilan ajralib turdi.

Shuningdek, ushbu guruhdagi o'quvchilarda o'qishga nisbatan ijobiy motivatsiya, o'ziga ishonch va ijtimoiy moslashuv darajasi yuqori ekani kuzatildi. Aksincha, emotsional intellekti past darajada rivojlangan o'quvchilarda tortinchoqlik, xavotir, emotsional beqarorlik va muloqotda qiyinchiliklar ko'proq namoyon bo'ldi.

Kern-Yerasik testi natijalari ham o'quvchilarning psixologik tayyorgarligi va emotsional holati o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjudligini tasdiqladi. Ya'ni, psixologik jihatdan yetuk va barqaror o'quvchilar test topshiriqlarini bajarishda yuqori natijalarni qayd etdilar. Olingan



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



natijalar asosida shuni xulosa qilish mumkinki, kichik maktab yoshida emotsional intellektni rivojlantirish o‘quvchilarning nafaqat psixologik farovonligini, balki ularning ta’limdagi muvaffaqiyatini ham ta’minlovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Statistik natijalar shuni ko‘rsatdiki, emotsional intellekti yuqori bo‘lgan o‘quvchilarda o‘qishga motivatsiya 35–40% yuqori; ijtimoiy moslashuv darajasi sezilarli darajada yaxshi va konflikt vaziyatlarini hal qilish qobiliyati rivojlangan.

Xulosa. Kichik maktab yoshidagi bolalarda emotsional intellektni rivojlantirish kompleks va tizimli yondashuvni talab etadi. Ushbu jarayon psixologik, pedagogik va ijtimoiy omillarning o‘zaro uyg‘unligi asosida samarali amalga oshiriladi. Xususan, o‘quvchilarning emotsional holatini inobatga olgan holda tashkil etilgan ta’lim jarayoni, o‘qituvchi va ota-onalar tomonidan ko‘rsatiladigan emotsional qo‘llab-quvvatlash, shuningdek, ijobiy ijtimoiy muhit emotsional intellektning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, emotsional intellekti rivojlangan o‘quvchilar o‘z his-tuyg‘ularini anglash va boshqarish, boshqalar bilan samarali muloqot qilish hamda muammoli vaziyatlarda to‘g‘ri qaror qabul qilish qobiliyatiga ega bo‘ladi. Bunday o‘quvchilar ta’lim jarayonida faolroq ishtirok etib, yuqori natijalarga erishadi, shu bilan birga ijtimoiy hayotda ham muvaffaqiyatli moslashadi.

Shu bois, boshlang‘ich ta’lim tizimida emotsional intellektni rivojlantirishga qaratilgan maxsus metodikalar va pedagogik texnologiyalarni joriy etish, o‘qituvchilarning psixologik kompetensiyalarini oshirish hamda oila va maktab hamkorligini mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Davletshin M.G, Do‘stmuhammedova Sh, Mavlonov M, To‘ychieva S, Djumabaeva M Yosh va pedagogik psixologiya. O‘quv qo‘llanma. Toshkent – 2007
2. Ivanov P.I, Zufarova M. E Umumiy psixologiya. “O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti.T;-2014
3. Xaydarov F. I, Xalilova N.I Umumiy Psixologiya. (darslik) Toshkent-2010
4. Xakimova, S. S. Q. (2025). Inson temperamentining psixologik xususiyatlari va ularning ijtimoiy hayotdagi o‘rni. *Science and Education*, 6(11), 981-985.
5. Salovey, P., & Mayer, J. D. (1990). Emotional Intelligence.
6. Annesi, J. J., & Vaughn, L. L. (2017). Relationship of parents' secure attachment, emotional eating, self-regulation, and body mass of children enrolled in primary grades. *International Journal of Environmental Research and Public Health*, 14(11), 1398. <https://doi.org/10.3390/ijerph14111398>
7. Bugental, D. B., & Johnston, C. (2000). Parental and child cognitions in the context of the family. *Annual Review of Psychology*, 51, 315-344. <https://doi.org/10.1146/annurev.psych.51.1.315>



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'OYALAR



8. 3. Bilige, S., & Gan, Y. Q. (2020). Academic burnout and psychological maladjustment among Chinese adolescents: A moderated mediation model. *Current Psychology*, 39, 1525-1534. <https://doi.org/10.1007/s12144-018-9843-2>
9. Coleman, P. K., & Karraker, K. H. (1997). Self-efficacy and parenting quality: Findings and future applications. *Developmental Review*, 18(1), 47-85. <https://doi.org/10.1006/drev.1997.0448>
10. Crandall, A., Deater-Deckard, K., & Riley, A. W. (2015). Maternal emotion and cognitive control capacities and parenting: a conceptual framework. *Developmental Review*, 36, 105-126. <https://doi.org/10.1016/j.dr.2015.01.004>

